



14.11.2022 даги

"NAVOI FRESH DRIED FRUIT" O.K. ва Кизилтепа тумани 36-сонли иктисослашган мактаб интернати  
ўртасида 59090955,00 сўм умумий суммага тузилган QR2307867084 - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб  
Шахсий газна ҳисобварақ

075

100021860122167092400075001

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)		Жами
	4252700		
Январь			
Февраль			
Март			
Апрель			
Май			
Июнь			
Июль			
Август			
Сентябрь			
Октябрь			
Ноябрь	59 090 955,00		59 090 955,00
Декабрь			
Жами йил бўйича	59 090 955,00		59 090 955,00

Жами 59090955,00 сўм

Эзлик тўққиз миллион тўқсон минг тўққиз юз эллик беш сўм 00  
тийин  
сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 17727286,50 сўм ёки 30,00%\*\*\* шартноманинг умумий суммасидан  
% \*\*\*20 ойда тўланиши лозим.

(\* — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан газначилик бўлинимасига икки нусхада тақдим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат модаласи кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойнага \_\_\_\_\_% жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб берилган шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).



Буюртмачи ходими  
Буюртмачи бухгалтери

*(Signature)*  
(ИМЗО)

Сафаров Умид Темирович  
Ф.И.Ш.

*(Signature)*  
(ИМЗО)

Улжаев Шавкат Толипович  
Ф.И.Ш.

Газначилик бўлинимасининг  
ходими қабул қилди

(ИМЗО)

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

Буюртмачи ходими  
қабул қилди

*(Signature)*  
(ИМЗО)

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

## OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

(2022-2023 yil Qish-baxor mavsimi zaxirasi uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari olish bo'yicha)

Keyingi o'rinlarda " Yetkazib beruvchi " deb ataladigan **Navoiy PRESH DRIED FRUIT Q.K**

Nomidan rahbar **B.Ro'ziev** (ustav/ishonchnoma/buyruq va x.q.) orqali bir tomondan, keyingi o'rinlarda " Buyurtmachi " deb ataladigan QIZILTEPA TUMANI 36-JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB INTERNATI ikkinchi tomondan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi mudir **U.Safarov** quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. Shartnomada tovar deb nomlanuvchi **Navoiy PRESH DRIED FRUIT Q.K** tomonidan yetkazib beri-ladigan (2022-2023 yil Qish-baxor mavsimi zaxirasi uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarining turi, hajmi, narxi)

№	Oziq-ovqat mahsulotlarining turi	O'lchbir-ligi	Miq-dori	Narxi	Yetkazib berish qiymati	QQS		Yetkazib berishning QQS xisobga olingan qiymati
						Stav-kasi	Summasi	
1	Kartoshka	kg	8005	3949	31 611 745			31 611 745
2	Sabzi	kg	2000	2449	4 898 000			4 898 000
3	Piyoz	kg	2000	2999	5 998 000			5 998 000
4	Guruch	kg	800	10949	8 759 200			8 759 200
5	Oshqavoq	kg	1000	2949	2 949 000			2 949 000
6	Mosh	kg	490	9949	4 875 010			4 875 010
Jami					59 090 955			59 090 955

ikkala taraf o'rtasida tuzilayotgan shartnomaning predmeti hisoblanadi.

1.2. Mahsulotning kafolat muddati 1 ( bir ) yil. Kafolat muddati mahsulot sotib oluvchiga topshirilgan paytdan, tovar almashtirilganda esa yangidan o'ta boshlaydi.

1.3. Mahsulotlarning jami narxi **59 090 955 (Ellik to'qiz million to'xsan ming to'qiz yz ellik besh )** so'm. Mazkur shartnoma bo'yicha xisob – kitoblar pul ko'chirish yo'li bilan oldindan 30 % pulni to'lash va mahsulot qabul qilingan paytdan boshlab 30 kun ichida qolgan 70% pulni to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi.

1.4. Agar mahsulotdan foydalanilmagan, uning iste'mol xususiyatlari saqlangan bo'lsa va sotuvchidan sotib olinganining isboti bo'lsa, sotib oluvchining mahsulotnini almashtirish yoki qaytarib olish haqidagi talabi qanoatlantiriladi.

1.5. Buyurtmachi o'ziga mahsulot topshirilgan paytdan boshlab o'n kun mobaynida xarid qilingan tegishli sifatli mahsulotni xarid joyida o'lchami, shakli, hajmi, andozasi, rangi, to'plami boshqacha bo'lgan xuddi shunday mahsulotga almashtirishi mumkin. Bunda u narxlarda farq bo'lgan taqdirda sotuvchi bilan zarur hisob-kitobni amalga oshiradi. Agarda sotuvchida almashtirish uchun zarur tovar bo'lmaganida sotib oluvchi xarid qilingan mahsulotni sotuvchiga qaytarib berish va unga to'langan pul summasini olish huquqiga ega.

1.6. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ularning har biri bir xil kuchga ega.

## **2. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari**

### **2.1. Yetkazib beruvchining huquqlari:**

- sotilgan mahsulot haqini to'lashni;
- mahsulotni o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni;
- buyurtmachi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

### **2.2. Yetkazib beruvchining majburiyatlari:**

- sotib oluvchi talab qilgan hollarda tovar to'g'risida unga zarur va to'g'ri axborotni qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda qo'yiladigan talablarga muvofiq holda berish;

- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- tovarni shartnomada ko'rsatilgan assortimentda topshirish;
- tovarni mansub ashyolari va tegishli hujjatlari bilan birga topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan but tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;

- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

### **2.3. Buyurtmachi huquqlari:**

- mahsulot to'g'risida zarur va to'g'ri axborotni qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda qo'yiladigan talablarga muvofiq holda berishni;

- shartnoma tuzilgunga qadar tovarni ko'zdan kechirish, o'z oldida tovarning xossalarini tekshirishni yoki tovardan qanday foydalanishni ko'rsatishni;

- sotib olayotgan mahsulotni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni;
- mahsulotni shartnomada ko'rsatilgan assortimentda topshirishni;
- mahsulotni mansub ashyolari va tegishli hujjatlari bilan birga topshirishni talab qilish.

### **2.4. Buyurtmachining majburiyatlari:**

- sotib olgan mahsulot haqini o'z vaqtida to'lash;
- mahsulotni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash;
- sotuvchi tomonidan mahsulotni saqlash uchun qilingan zarur harajatlarni to'lash.

Sotib oluvchi shartnomaning mahsulotlar miqdori, assortimenti, sifati, butligi, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

### 3. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

3.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko'ra sotish joyida darhol mahsulot to'g'risidagi axborotni olish imkoni berilmagan yoxud uning mahsulotni ko'zdan kechirish, mahsulotning xossalarini tekshirish yoki mahsulotdan foydalanishni ko'rsatishni talab qilish huquqi ta'minlanmagan bo'lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortilgani tufayli o'zi ko'rgan zararni to'lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo'lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, mahsulot uchun to'langan summani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga tovar to'g'risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi mahsulot sotib oluvchiga topshirilganidan so'ng mahsulotda paydo bo'lgan kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o'zida bunday axborot bo'lmagani sababli paydo bo'lganini isbotlasa, javobgar bo'ladi.

3.2. Agarda mahsulot sotib oluvchiga idishsiz va o'ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan mahsulotni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lmagan idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'rniga ushbu shartnomaning 3.3-bandi birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar sotilganida, agar uning kamchiliklari shartnoma tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

xuddi shu markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

xarid narxini tegishincha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini;

xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

ko'rilgan zarar o'rnini qoplagan holda shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtda sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas.

3.4. Sotuvchi shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

3.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, assortimenti, sifati, butligi, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

#### 4. Fors-major holatlar

4.1. Sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmay kuch ta'siri: elektr o'chishi natijasida yuzaga keladigan kuyish, tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lgan tasodifiy shikastlanish, yong'in chiqishi, suv tegishi natijasida buzilishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

#### 5. Nizolarni xal qilish

5.1. Ushbu shartnoma yuzasidan taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan xal yetiladi.

5.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni xal yetish imkoniyati bo'lmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tegishli sud organlariga murojaat etiladi.

#### 6. Korrupsiyaga qarshi talablar.

6.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021 yildagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-sonli Farmonining 3-qism v) bandiga muvofiq: - har bir tomon, shu jumladan barcha xodimlar, vakillar, shuningdek ular tomonidan jalb qilingan yoki ular nomidan ish olib boradigan boshqa shaxslar, boshqa tomonga, uning xodimlariga, vakillariga, potensial yoki mavjud mijozlarga va har qanday tegishli Hamkorlariga, shuningdek, boshqa tomon tomonidan jalb qilingan yoki uning nomidan ish yuritadigan boshqa shaxslarga ("Ishtirokchi Tomonlar") moddiy/nomoddiy rag'batlantirish, manfaat, taqdirlash, takliflar (shu jumladan, cheklanmagan holda, har qanday to'lov shakli, sovg'alar va boshqa mulkiy imtiyozlar, mukofotlar va manfaat (pul yoki har qanday qiymat ko'rinishida)) bermaslikni ya'ni, moliyaviy mukofot, mulk, mulk huquqini taklif qilmaslikni, bermaslikni kafolatlaydi va shunga majbur.

#### 7. Shartnomaning amal qilishi va bekor qilinishi

7.1. Shartnoma imzolanib Qiziltepa tuman g'aznachilik bo'limidan ro'yxatda o'tgandan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amalda bo'ladi.

#### 8. Taraflarning rekvizitlari

«Yetkazib beruvchi»

**Navoiy PRESH DRIED FRUIT Q.K**

Manzili: Qiziltepa shahar

Telefon : 936634686

H/r: 20208000405389343001

Bank nomi: Xalq banki Qiziltepa sh.

INN: 308487471 MFO:00706

Rahbar B. Ro'ziev

(imzo)



«Buyurtmachi»

QIZILTEPA TUMANI 36-JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB INTERNATI Yuridik

manzilgoh QIZILTEPA TUMANI

Telefon:79-5557792

H/r: 100021860122167092400075001

Bank nomi: Toshkent shahar markaziy bank

INN:200017178

MFO:00014

OKONX:

G'aznachilik H/R: 23402000300100001010

Bank nomi Markaziy bank Toshkent shahar

Bosh boshqarmasi XKKM

Bank kodi (MFO) 00014 INN:201122919



Rahbar

U.Safarov



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	UMID SAFAROV TEMIROVICH
Imzolangan sana	14.11.2022 17:07
Hujjat kodi	<b>FH5606871475</b>
Hulosa kodi	<b>QR2307867084</b>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN  
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

QR2307867084

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Pf|bhf 22222**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: 36-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB INTERNATI tomonidan 14.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Qiziltepa tuman  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:



**B.Z.SALIMOV**

14.11.2022